

TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISH OMILLARI

ERGASHEV TOLIBJON ESHQOBILOVICH

*Boshqaruv samaradorligi agentligi
Jizzax viloyati filiali bosh inspektori,
f.f.b.f.d., (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida inson kapitalini va xizmatlar sohasini rivojlantirish, tezkor va chuqurlashgan bilimga ega bo'lish, raqamlashtirish jarayoni sifatiga yangicha o'qitish mexanizmlarini qo'llash orqali samarali inson intellektini shakllantirishga erishish yo'llari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, inson kapitali, ta'lim xizmatlari, inson intellekti, ta'lim xizmatlari, karyera modeli, inson resurslari, meritokratiya, inson qobiliyati, raqamlashtirish.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы пути развития человеческого капитала и сферы услуг в системе высшего образования, получения быстрых и глубоких знаний, формирования эффективного человеческого интеллекта за счет использования новых механизмов обучения в условиях цифровизации.

Ключевые слова: экономическая эффективность, человеческий капитал, образовательные услуги, человеческий интеллект, модель карьеры, человеческие ресурсы, меритократия, человеческие возможности, цифровизация.

Abstract: This article scientifically analyzes ways to develop human capital and the service sector in the higher education system, acquire rapid and in-depth knowledge, and achieve the formation of effective human intelligence through the use of new teaching mechanisms in the quality of the digitalization process.

Key words: economic efficiency, human capital, educational services, human intelligence, educational services, career model, human resources, meritocracy, human capabilities, digitalization.

KIRISH

O'zbekiston aholisi farovonligining oshishi va iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishi, avvalo, fuqarolarning bilim darajasiga bevosita bog'liqdir. Egallangan mukammal bilimlar "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot jarayonini jadallashtirishga zamin yaratadi. Jamiyat, uning asosiy tayanchi bo'lgan iqtisodiyot va xizmatlar sohasining rivojlanishi bilan birga, bilimlar, innovatsiyalar hamda ularni amaliyotda qo'llash mexanizmlari ham asosiy daromad manbaiga aylanib bormoqda.

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida yoshlarning olgan bilimlari va uning ahamiyati birinchi darajaga chiqmoqda. Bu esa ta'limning jamiyatdagi o'rnini, shuningdek, ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga, axborot, raqamlashtirish va nazariy bilimlar har qanday mamlakat uchun strategik resurs sifatida e'tirof etiladi. Ta'lim sohasining rivojlanish darajasi esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeini belgilab, aholi farovonligini oshirishda eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan hozirgacha rivojlangan mamlakatlarning (AQSh, Angliya, Germaniya, Yaponiya va h.k.) ilmiy - ommabop nashrlarida inson kapitali, jamiyat kapitali, ijtimoiy kapital, madaniy kapital, intellektual kapital, intellektual mulk, inson omili kabi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liq jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga oid ko'plab maqolalar chop etilib kelmoqda. Ayniqsa so'ngi paytlarda inson kapitali masalasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lmoqda. Takidlash joizki, ilgari kapital atamasi asosan boylik, tovar, mulk ma'nosini anglatgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu atama jamiyat taraqqiyoti xususan, insonning to'liq va farovon yashashini ta'minlashga xizmat qiluvchi vosita, kuch sifatida keng ma'noda qabul qilinmoqda. Shuning uchun ham iqtisodchi olimlar, mutaxassislar, tadbirkorlar, umuman biznes ahli inson kapitaliga o'zlarining maqsad va faoliyat turlaridan kelib chiqib turlicha ta'riflarni berishgan va kelajakda ham bub o'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkaziladi.

QONUNCHILIK

2019-yilning 8-oktabrida "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli Prezident Farmoni qabul qilindi.

Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad qilib olingan;¹

- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

- oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan,

¹ O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi <https://lex.uz/docs/4545884>

mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

- xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish ko'zda tutilgan.

TADQIQOTLAR VA TAHLILLAR

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi korxonalarni qayta tashkil etishga undaydi va inson kapitalining tarkibiy va mazmunan tashkil etuvchilariga yangi talablarni qo'ygan holda ish o'rinlariga tarkibiy talabni shakllantiradi. Zero, mahsuldorlikning yuqori o'sishini ta'minlash borasida yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va uning rivojlanishi asnosida xodimlar va foydalanuvchilar yangi ko'nikma va qobiliyatlarga muhtojlik sezadilar. Raqamli inson kapitalini rivojlantirishning global chaqiriqlarining asosiy tamoyili - bu raqamli muhitda muvaffaqiyatga erishishda ustuvor bo'lgan ko'nikmalar guruhiga bo'lgan qarashlarni o'zgartirish hisoblanadi.

IHTTning "Raqamli iqtisodiyot istiqbollari 2017" hisobotida raqamlashtirish biznes innovatsiyalarini rivojlantirishning katalizatori sifatida ko'rib chiqiladi. Raqamlashtirish keng imkoniyatlar taqdim etishi bilan bir qatorda, u bir qator muammolarni ham paydo qiladi, xususan, kompaniyalar samaradorlikni oshirish borasida raqamlashtirishdan qanday foydalanish va raqamli muhitda xodimlarni qanday rivojlantirishni anglab yetishlari lozim bo'ladi. Biroq, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning o'sish sur'ati raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirishning o'sish sur'atlaridan orqada qolmoqda. Jumladan, IHTT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda 55-65 yoshdagi to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lmagan va past malakali insonlar hatto asosiy raqamli ko'nikmalar va kompyuterda ishlash malakasiga ham ega emaslar.²

Ushbu toifadagi katta yoshdagi aholi orasida mazkur ko'nikmalarning yetishmasligi ularni inson kapitalidan foydalanishdagi hozirgi texnologik o'zgarishlar va yangi tarkibiy talablar bilan bog'liq bo'lgan ish joylarini yo'qotishning risk guruhiga tushib qolish ehtimolini oshiradi. Shunday qilib, mehnat bozorida tarkibiy texnologik o'zgarishlar, birinchi navbatda, raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan va rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda ishlash uchun zarur bo'lgan malakalarini oshirishga tayyor bo'lmagan ishchilarga ta'sir qiladi.

²<https://www.oecd.org/digital/oecd-digital-economy-outlook-2017-9789264276284-en.htm>

2015 yilda o'tkazilgan PIAAC tadqiqotining tahliliy natijalari ishsizlik riski va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda muammolarni hal qilish ko'nikmalarining rivojlanish darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.³

Ko'rinib turibdiki, texnologik jihatdan to'yingan raqamli muhitda professional vazifalarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lgan xodim-largina ishsizlar guruhiga tushib qolish xavfidan yuqori darajada himoyalangan.

Raqamli kompetensiya, raqamli muhitda muammolarni hal qilish va hamkorlik-bu 2018-yil yanvar oyida kuchga kirgan raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha harakatlar rejasi (DEAP) doirasida Yevropa komissiyasining diqqat markazida bo'lgan korxona inson kapitalining tarkibiy va muhim qismlari hisoblanadi.⁴

K.R.Makkonel va S.L.Bryu o'zlarining "Ekonomiks" asarida "Inson kapitaliga investitsiyalar"ni quyidagicha tariflaydi: "Inson kapitaliga investitsiyalar - bu ishchilarning malaka va ko'nikmalarini va shu orqali mehnat unumdorligini oshiradigan har qanday harakatdir".⁵ Bu yerda asosiy e'tibor insonning bilim, ko'nikma va kasbiy mahorati orqali ish samaradorligini oshirishga qaratiladi.

A.Smit "foydali mehnat ynyndopligining o'sishi eng avvalo xodimning chaqqonligi va salohiyatining oshishiga, yndan keyin esa y ishlatayotgan mashina va yskynalapning yaxshilanishiga bog'liq bo'ladi" deb aytgan. Uning fikricha asosiy kapital mashinalap va boshqa mehnat qypollapi, inshoatlap, ep va "bapcha aholi va jamiyat a'zolapi tomonidan opttipilgan va foydali qobiliyatlapini"dan ibopat bo'ladi, degan qarashni ilgari suradi.

Djon Styuapt Mill: "Insonni o'zini... men boylik sifatida ko'pmayman. Lekin yning mehnat natijasida vosita sifatida opttipilgan qobiliyatlapini aynan shy kategoriyaga kipitgan bo'lapdim" va yana "Mamlakat ishchilapining salohiyati, qyvhati va bapdoshliligi ham yning mashinalapi va boshqa ishlab chiqapish qypollapi kabi boyligi hisoblanadi", degan fikrni bildirgan.

Shuningdek Mapk Blayg esa: "Inson kapitali konsepsiyasi, yoki inson kapitalining tadqiqot dastypi g'oyasi shyndaki inson o'ziga manbalapni typli yo'llapga – nafaqat jopiy ehtiyojlapni qondipish, balki kelgysida olib kelishi mymkin pyl va pyl bilan bog'liq bo'lmagan dapomadlap ychyn xapajat qiladi. Ulap o'z sog'ligiga sapmoya qilishlapi, ixtiyopiy pavishda qo'shimcha ta'lim olishlapi, taklif qilingan bipinchi ishga pozi bo'lmasdan maksimal dapomad keltipishi mymkin ishni izlashga, bo'sh ish o'pinlapi haqida ma'lymotga olishga, ish izlab bip hydyddan ikkinchi

³ PIAAC. Survey of Adult Skills [Электронный ресурс] / OECD. – 2015. – Режим доступа: <http://www.oecd.org/skills/piaac/>.

⁴ European Commission. The Digital Economy and Society Index (DESI) / European Commission; European Union. Digital Education Action Plan / European Commission. – 2018.

⁵ Экономика; Макконнелл, К.Р.; Брю, С.Л.; Изд-во: М.: Инфра-М, 2009 г.; ISBN: 978-5-16-003470-6.

hydydga ko‘chishga va hokazolapga optiqcha xapajat qilishadi” degan g‘oyani maqullagan.

Iqtisodchi va tadqiqotchi olimlarning fikridan shuni uqish mumkinki:

- inson kapitali mehnat unumdorligining asosiy omili bo‘lishi;
- inonning qobiliyati va malakasi – boylikning asosiy turi sifatida qaralishi;
- inson kapitali moddiy kapitaldanda qadirli ekanligi;
- inson kapitaliga investitsiya – kelajakning asosiy sarmoyasi bo‘lishi ilmiy tadqiq qilingan.

Demak, inson kapitali iqtisodiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, insonlar o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali nafaqat shaxsiy, balki davlat darajasida ham iqtisodiy o‘shishga o‘z hissasini qo‘shadi. Mamlakat ichida va xalqaro darajada inson kapitalini rivojlantirish orqali raqobatbardoshlik muhiti rivojlanib boradi.

Inson kapitalning bir shakli bo‘lgan foydali ko‘nikma va bilimlarni o‘qigan, uqqan va kasbiy mahoratiga qarab egallab boradilar. Inson kapitaliga investitsiyalar mehnat unumdorligini oshirishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Inson kapitaliga sarmoya kiritishning eng yorqin misoli ta’lim xarajatlariga hisoblanadi. Ta’limga investitsiyalar turli darajalarda amalga oshirilishi mumkin:

makro darajada - davlat budjetidan moliyalashtirish orqali ya’ni umumiy ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimiga sarflar va boshqalar;

mezo darajada xususiy korxona yoki kompaniyalar investitsiyalari hisobidan ya’ni xodimlar yoki ishchilarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, korporativ o‘quv dasturlari va boshqalar;

mikro daraja - jismoniy shaxslar yoki insonlarning o‘z farzandlari yoki yaqin insonlari uchun ta’limga investitsiya yo‘naltirishdan iborat.

Dunyo mamlakatlarining inson aqliy qobiliyatini o‘stirishga va sog‘ligini ta’minlashga qaratilgan investitsiyalar sarfi bo‘yicha halqaro indeks ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lib, u “inson kapitali indeksi” deb nomlanadi. Inson kapitali indeksi Jahon banki guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va inson kapitali loyihasi doirasida foydalaniladigan dunyo mamlakatlari va mintaqalaridagi inson kapitali rivojlanish darajasini tavsiflovchi kompozitsion ko‘rsatkichdir. Indeks davlatlar tomonidan o‘z ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi muammoli masalalarni tahlil qilish va barqaror rivojlanish modeliga o‘tishga tayyorligini baholash uchun foydalanilinadi.

U dunyo mamlakatlarida inson kapitali rivojlanish darajasini qiyosiy baholashga xizmat qiladi va indeksning tarkibiy elementi sifatida bolalarning sog‘ligi, ta’lim darajasi, umr ko‘rish davomiyligi va mehnatga layoqatlilikni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda kompaniyalar uchun ularning o‘tgan davrlarda erishgan natijalari unchalik ham muhim emas, ular kelgusida muvaffaqiyatni ta’min etuvchi tajriba va ko‘nikmalar haqida so‘z yuritishni afzal biladilar. Kelajakda muvaffaqiyatni

kafolatlaydigan ko'nikma va fazilatlarga ega bo'lish muhimdir. Kerakli fazilatlar ro'yxati muttasil tarzda yangilanib boradi. Dunyoning yetakchi ish beruvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar zaruriy "kelajak ko'nikmalari" turli-tuman ekanligini ko'rsatadi.

Kutilmalar ro'yxatiga dasturlash qobiliyati va hissiy intellekt kabi turli xil jihatlar kiradi.⁶ Qo'l mehnati bilan bir qatorda moliya va moddiy resurslarni boshqarish qobiliyati o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Xulq-atvorning moslashuvchanligi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omilidir. Biologik turlarning evolyusiyasi va omon qolishi yoki zamonaviy inson o'zgaruvchan dunyo sharoitlariga qanday moslashishidan qat'i nazar, u turli darajalarda o'zini namoyon qiladi. Xulq-atvorni o'zgartirish asnosida inson kapitali tashqi muhit chaqiriqlariga moslashib boradi. Xulq-atvor umumiy ma'noda atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarning shakllangan va qat'iy usuli sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, qiyinchiliklarga javoban (masalan, o'zgaruvchan sharoitlar yoki yangi omillarning paydo bo'lishi) harakat rejimi o'zgaradi. Bu atrofda sodir bo'layotgan voqealarga moslashuvchan javob berish va muvaffaqiyatli strategiyalarni tanlash imkonini beradi.

Har bir yangi narsani o'rganish-bu xulq-atvorning o'zgarishi demakdir. Avval mavjud bo'lmagan ko'nikma va malakalarga ega bo'lish uchun siz hatti-harakat tarzini o'zgartirish talab qilinadi. Olingan tajriba (o'qigan, ko'rgan, eshitgan, o'ylagan va qo'llaniluvchi hamma narsa) ta'siri ostida miya tuzilmalari yangi axborot kanallarini yaratadi va o'rganish amalga oshadi.

Xulq-atvor moslashuvchan funksiyani bajaradi, bu tananing o'zini yo'qotmasligi va kutilmagan omillar ta'siri ostida rivojlanishni to'xtatmasligiga imkon beradi. Moslashish va kompensatsiya jarayonlarini boshlagandan so'ng, organizm yoki tuzilma yanada murakkablashadi va rivojlanadi. Tana qancha ko'p ma'lumotni saqlashi, o'zlashtirishi va qo'llashi mumkin bo'lsa, u shunchalik murakkab bo'ladi. Inson miyasi 100 milliardga yaqin neyronlardan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan bog'lanib, taxminan 100 trillion aloqadan iborat tarmoq hosil qiladi. Impulslar (ma'lumotlar)ning uzatilishi sinaps - neyronlarning maxsus aloqa nuqtasi yordamida sodir bo'ladi.

Ta'lim tizimi, korxonalar va odamlarning o'zlari inson kapitali-ning raqamli rivojlanishiga teng hissa qo'shishi kerak, bu esa ushbu ijtimoiy va mehnat munosabatlari sub'ektlarining uchligida sinergetik ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Kerakli ko'nikmalarni rivojlantirish mavzusida global kompaniyalarning 5600 nafar menejerlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra:

⁶ Arntz, M., Gregory, T., Zierahn, U. The Risk of Automation or Jobs in OECD Countries: A Comparative Analysis. OECD Social, Employment and Migration Working Papers, OECD Publishing. – Paris, 2016. – 189 p.

-korxonalarning atigi 49 foizi zarur ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish va saqlash uchun javobgardir, degan bo‘lsa;

-respondentlarning 39 foizi o‘z-o‘zini tarbiyalash yo‘nalishi bo‘yicha xodimlarning o‘zlariga javobgarlikni yuklaydilar;

78% respondentlar kasbiy mahoratni shakllantirish va rivojlantirish borasida davlatning mas’ul ekanligini ta’kidlashadi.

Shu bois, korxonalar rahbarlari va xodimlarining inson kapitalini raqamli rivojlantirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun javobgarligini tushunib yetmasliklari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida inson kapitalini boshqarish sohasida jiddiy muammo hisoblanadi.

Dunyo iqtisodchi olimlari izlanishlari natijalaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyoti rivojida inson kapitali darajasi katta ahamiyat kasb etadi.

Inson kapitalini rivojlantirish orqali mamlakatlar o‘z hududidagi iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab, raqobatbardoshlik darajasini takomillashtirib boradi.

Inson kapitalining iqtisodiy salohiyatini baholash uslubi.

Inson iqtisodiy sub’ekt sifatida ikki qobiliyatga ega hisoblanadi: insonning mehnat qobiliyati va insonning tadbirkorlik qobiliyati.

Inson mehnat qobiliyati ishchi kuchidan amalda foydalanish jarayonida yuzaga kelib aniq va abstrakt hamda jismoniy va aqliy mehnat turlaridan iborat. Kishi mehnat natijasida ish haqi olib tirikchilik qiladi. Iqtisodiy mantiqqa muvofiq, inson qancha ko‘p va unumli mehnat qilsa, shuncha farovon yashashi kerak.

Insonning tadbirkorlik qobiliyati - bu har bir kishining faol va mustaqil tadbirkorlik ishida o‘zining ishbilarmonlik fazilatlarini amalga oshirish shakli bo‘lib, ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish, izchil boshqaruv qarorlarini qabul qilish, texnologik va tashkiliy-boshqaruv yangiliklarni o‘zlashtirish, tavakkalga intilish hamda foyda keltirayotgan ishni ta’minlash bilan bog‘liq insonning iqtisodiy qobiliyatidir.

Inson iqtisodiy kamoloti ma’lum bir vaqt oralig‘ida shakllanib boradi va insonga daromad olish imkoniyatini yaratadi. Iqtisodiy yuqori cho‘qqiga chiqishning quyidagi bosqichlari mavjud:

- Kapital sifatidagi inson qobiliyatlari;
- Ishchi kuchi sifatidagi inson;
- Professional sifatidagi inson;
- Tadbirkor sifatidagi inson;
- Menejer sifatidagi inson.

Inson o‘zidagi qobiliyatlarini sezishi va uni shakllantirib borishi, hamda o‘z imkoniyatlarini baholay olishi natijasida inson iqtisodiy komillikka erishadi.

Kapital sifatidagi inson qobiliyatlari.

Agar kapital atamasi o'z egasiga qo'shimcha qiymat keltiradigan qiymatni bildirsa, unda inson kapitali, bizning fikrimizcha, bu insonda mavjud bo'lgan va unga daromad keltiradigan qobiliyatlar, bilimlar, malaka, salohiyat va ruhiy-jismoniy resurslar majmuasidir. Inson kapitalining tayanch asosini inson qobiliyatlari tashkil etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan odamlarning shaxsiy qobiliyatlari inson kapitalining birlamchi iqtisodiy tayanchi hisoblanadi.⁷

Insonning jismoniy, aqliy, ma'naviy va iqtisodiy barkamolligini tavsiflovchi fazilatlari negizida ularning qobiliyatlari shakllanadi.

Inson kapitalining ichki tuzilishi 3 qatlamdan iborat:

- Insoniy fazilatlar;
- Insonning shaxsiy qobiliyatlari;
- Individual inson kapitali.

Inson kapitali dastlab ajralmas shaklida namoyon bo‘lib, individua inson kapitali ko‘rinishida vujudga keladi.

Inson qobiliyatlari - inson kapitali asosi

Inson kapitalining tayanch asosini inson qobiliyatlari tashkil etadi. Bu qobiliyatlar tug'ma yoki hayot davomida olingan bo'lib, ular mehnat bozoridagi faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Bunga:

- ta'lim orqali olingan bilimlar,
- kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish,
- intellektual qobiliyatlar,
- jismoniy bardoshlik va salomatlik,
- ijtimoiy-ma'naviy salohiyat kiradi.

Shaxsiy qobiliyatlarning iqtisodiy ahamiyati

Shaxsiy qobiliyatlar - ya'ni insonning aqliy, jismoniy va ruhiy resurslari - inson kapitali tarkibida birlamchi iqtisodiy tayanch hisoblanadi. Chunki aynan shu qobiliyatlar orqali:

- insonning ish samaradorligi oshadi,
- yaratiladigan qiymat ko‘payadi,
- innovatsiya va texnologik rivojga hissa qo‘shiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat

Inson qobiliyatlari nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, aholining bilimli, malakali va salohiyatli bo'lishi:

7

https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&q=related: vVD57_S6xoj:scholar.google.com/#d=gs_cit&t=1753173707769&u=%2Fscholar%3Fq%3Dinfo%3A_vVD57_S6xoj%3Ascholar.google.com%2F%26output%3Dcite%26scirp%3D0%26hl%3Drus&as_scd=text:Ergashev%20T.%20OZBEKISTONDA%20TALIM%20XIZMATLARINI%20RIVOJLANTIRISHDA%20KLASTER%20USULIDAN%20FOYDALANISH%20VA%20UNING%20IQTISODIY%20IMKONIYATLARI%20//SUSTAINABILITY%20OF%20EDUCATION%2C%20SOCIO%20ECONOMIC%20SCIENCE%20THEORY.%20%E2%80%93%202025.%20%E2%80%93%20D0%A2.%203.%20%E2%80%93%20%E2%84%96.%2031.%20%E2%80%93%20D0%A1.%20115%2D119.

- davlatning iqtisodiy o'sishiga,
- kambag'allikni keskin kamaytirishga,
- ish bilan band bo'lganlar darajasini oshirishga,
- innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Ishchi kuchi sifatidagi inson.

Ishchi kuchi mehnat qilishga qaratilgan jismoniy va aqliy qobiliyatlarning yig'indisidir. Iqtisodiy tarbiya natijasida ishlab chiqarishning shaxsiy - insoniy omili sifatidagi ishchi kuchi holatiga erishadi. Shuning uchun bu yo'nalishdagi tarbiya oila, bog'cha, maktab, litsey, texnikumlar hamda oliy o'quv yurtlarining diqqat-e'tiborida bo'lishi kerak. Chunki, bola tug'ilgandan boshlab olgan bilimlari va ko'nikmalari natijasida 16 yoshga borganda ishchi kuchi sifatida shakllanib, mehnat qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Toki mehnatga layoqatli yoshiga kirgandan va o'qishini tugatgandan keyin malakaviy va unumli ish bilan shug'ullana olsun. Shaxs bolalik va yoshlikdan jismoniy baquvvat, intellektual rivojlangan, mehnatsevar, o'ziga xos kasb-hunarga ega bo'lib kamol topgan taqdirdagina o'z mehnat qobiliyatini shakllanib mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish va kelajakda turmushning farovon darajasiga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Professional sifatidagi inson.

Professional sifatidagi insonni shakllantirish o'zida quyidagi bosqichlarni mujassamlashtiradi:

- Birlamchi professionalizatsiya yoxud kasb-hunar ta'lim;
- Ikkilamchi professionalizatsiya yoxud kasbiy mehnat faoliyati;
- Uchlamchi professionalizatsiya yoxud professional ilmiy-tadqiqot ishi.

Yuqorida sanab o'tilgan tasniflashlar insonni shaxs sifatidagi professional innovatsion modelini yaratish imkonini beradi.

XV.IOCAIAP

Bugungi kunda butun dunyo ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Ta'lim sohasiga sun'iy intellektning kirib kelishi, ta'lim xizmatlarining yangi turlari paydo bo'lishi, davlat monopoliyasidan voz kechish, xususiy universitetlarning paydo bo'lishi, tijorat ya'ni davlat xususiy-sherikchilik asosidagi ta'lim, jamiyat hayoti tuzilishining o'zgarishi ta'lim xizmatlari bozorida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Iqtisodiyot va jamiyatning axborotlashtirilishi, davlat va xususiy korxonalar hamda tashkilotlar faoliyat ko'rsatish sharoitlarining o'zgarishi ta'lim xizmatlarini kuchayishiga sabab bo'ldi. Ta'limga ehtiyoj muayyan kasbni o'zlashtirish, ma'lum lavozimni egallash, ma'lum darajada ma'lumot olish, qo'shimcha malakani o'zlashtirish, jamiyatda muayyan o'rinni egallash, Meritokratiya tamoyilini qo'llash bilan belgilanadi.

Oliy ma'lumotlilik va diplom hozirgi davrda nufuzni belgilovchi omil sifatida emas, balki inson kapitali va bilim globallashtirish va tez o'zgaruvchan dunyoda yashab qolish vositasi sifatida ham qaralishi lozim.

Oliy ta'lim tizimida inson kapitalini va xizmatlar sohasini rivojlantirish, tezkor va chuqurlashtirish bilimiga ega bo'lish, raqamlashtirish jarayoni sifatiga yangicha o'qitish mexanizmlarini qo'llash orqali samarali inson kapitalini shakllantirishga erishish mumkin. Buning uchun Oliy ta'lim tizimida inson kapitalini samarali shakllantirish va xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim, deb o'ylaymiz:

1. Yangi o'quv mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

-*Interaktiv o'qitish*: keyslar, muammolarni hal qilish, simulyatsiya va amaliyotlar orqali talabalarning bilimni amaliy jihatdan o'zlashtirishini ta'minlash.

- *Onlayn va gibril ta'lim*: masofaviy o'qitish platformalarini joriy etish, turli fanlar uchun MOOC (Massive Open Online Courses) dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash.

-*STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics)* yondashuvlarini joriy etish: talabalarni keng ko'lamda fikrlash va kross-dissiplinar ko'nikmalar bilan ta'minlash.

2. Raqamlashtirish jarayonini chuqurlashtirish.

-*Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish*: elektron jurnallar, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxonalar, onlayn va oflayn o'qitish platformalari orqali ta'lim sifatini oshirib borish.

-*Tahlil va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish*: talabalarning o'quv faoliyatini monitoring qilish, shaxsiy rivojlanishi uchun har bir talabaning o'ziga mos o'quv rejalarini ishlab chiqish.

-*Elektron portfolioni shakllantirish va sertifikatlashtirish*: har bir talabaning shaxsiy yutuqlari va ko'nikmalarini elektron ravishda yuritib borish tizimlarini yo'lga qo'yish.

3. Inson kapitalini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

- *Maxsus malakali kadrlar tayyorlash*: mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va amaliyotga joriy qilish.

-*Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim*: korxonalar bilan hamkorlikda dual ta'lim modelini joriy etish.

- *Ijodiy va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish*: talabalarni startaplar, innovatsion g'oyalar va grantlar bilan qo'llab-quvvatlash.

4. Inson kapitalini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

-*Maxsus malakali kadrlar tayyorlash*: mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish.

-*Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim*: korxonalar bilan hamkorlikda dual ta'lim modelini joriy etish.

-*Ijodiy va tadbirkorlik ko'nikmalari*: talabalarni startaplar, innovatsion g'oyalar va grantlar bilan qo'llab-quvvatlash.

5. Xizmatlar sohasini rivojlantirish.

- *Ta'lim xizmatlari sifatini oshirish*: xalqaro standartlarga mos ta'lim dasturlari va akkreditatsiya jarayonlarini joriy etish.

- *Talabalar va o'qituvchilar uchun zamonaviy infratuzilma*: kampuslar, laboratoriyalar, IT infratuzilmalarini rivojlantirish.

- *Xalqaro hamkorlik*: ikki tomonlama diplom dasturlari, stajirovkalar va akademik almashinuvlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi <https://lex.uz/docs/4545884>
2. <https://www.oecd.org/digital/oecd-digital-economy-outlook-2017-9789264276284-en.htm>
3. PIAAC. Survey of Adult Skills [Электронный ресурс] / OECD. – 2015. – Режим доступа: <http://www.oecd.org/skills/piaac/>.
4. European Commission. The Digital Economy and Society Index (DESI) / European Commission; European Union. Digital Education Action Plan / European Commission. – 2018.
5. Экономика; Макконнелл, К.Р.; Брю, С.Л.; Изд-во: М.: Инфра-М, 2009 г.; ISBN: 978-5-16-003470-6
6. Arntz, M., Gregory, T., Zierahn, U. The Risk of Automation or Jobs in OECD Countries: A Comparative Analysis. OECD Social, Employment and Migration Working Papers, OECD Publishing. – Paris, 2016. – 189 p.
7. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&q=related:_vvD57_S6xoJ:scholar.google.com/#d=gs_cit&t=1753173707769&u=%2Fscholar%3Fq%3Dinfo%3A_vvD57_S6xoJ%3Ascholar.google.com%2F%26output%3Dcite%26scirp%3D0%26hl%3Dru:~:text=Ergashev%20T.%20OZBEKISTONDA%20TALIM%20XIZMATLARINI%20RIVOJLANTIRISHDA%20KLASTER%20USULIDAN%20FOYDALANISH%20VA%20UNING%20IQTISODIY%20IMKONIYATLARI%20//SUSTAINABILITY%20OF%20EDUCATION%2C%20SOCIO%2DEC%20NOMIC%20SCIENCE%20THEORY.%20%E2%80%93%202025.%20%E2%80%93%20%D0%A2.%203.%20%E2%80%93%20%E2%84%96.%2031.%20%E2%80%93%20%D0%A1.%20115%2D119